



O‘ZBEK SHE’RIYATIDA SINONIMLARNING IFODALANISHI (MAQSUD SHAYXZODA SHE’RIYATI MISOLIDA)

Maxanova Feruza

Shahrisabz davlat pedagogika instituti O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Maqsud Shayxzoda adabiy merosi va asarlarining til xususiyatlari aks etgan. Maqolada Maqsud Shayxzoda ijodining tilshunoslikda o‘rganilmagan jihatlari ham tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *lingvopoetika, sinonim, she‘riyat, til xususiyatlari, so‘z, adabiy til, lug‘at.*

Tafakkur va fikrlashlarimiz milliy g‘oya asosida takomillashayotgan bir davrda o‘z davri ijodkorlarining san‘at hisoblangan badiiy asarlari tilini endilikda tadqiq etish ishlari yangicha uslubda boshlandi. Maqsud Shayxzoda ijodiga munosabat, asarlari mazmuni va mohiyatini tushunish har bir asarning o‘ziga xos serjilo, purma‘no, emotsionallikka boy jihatlari kabi qirralarini ochishga asosdir.

Shoir she‘rlarida O‘zbekiston “Osiyo siynasida yashil bog‘iston”, “Ipakobod ataladi elda Marg‘ilon”, “Sharqning yorug‘ derazasi – ming ko‘cha Toshkent”, “Gilam kabi yoyilibdi Chimyon darasi” kabi qator tashbihlar bilan ziynatlangan. Maqsud Shayxzoda har bir asarida yangi so‘zlar yarata olgan ijodkordir: Ipakobod, dilxat, vafokorlik, qalbdosh, nurobod, ma‘nidor, hamsaf, g‘ayratmand, qaymoqdon, pahlavonvor, umrdosh.... Shoir she‘rlaridagi bunday so‘zlar poetik fikrga jilo bergan, badiiy so‘zning ohanrabosini oshirgan.

Bugungi kunda adabiyot darslarimizda uchraydigan barcha asarlar ham hozir amal qiladigan sof o‘zbek adabiy tilida emas. Masalan, Tog‘ay Murodning asaridan olingan maktab darsliklarida uchraydigan “*anglab yurmish*”, “*oyoq ildi*”, “*chalqayramon*”, “*arbada*” kabi so‘zlar “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da ham, “O‘zbek tilining sinonimlar izohli lug‘ati”da ham uchramaydi. Shunda savol tug‘iladi. Biz o‘quv lug‘atlar ya‘ni ta‘limiy lug‘atlarni o‘quvchi ma‘nosini tushunmagan har bir so‘zni topa olishi mumkin va u uchun dasturiamal bo‘lib xizmat qiladigan manba bo‘lishi kerak deb. Xo‘sh, ularni o‘quv sinonimik lug‘atlarga kiritish mumkinmi? Maktab darslik va qo‘llanmalariga kiritish mumkinmi? Maktab darslik va qo‘llanmalarida mavjudligi muayyan leksik birlikning o‘quv lug‘atida aks etishi uchun yagona asos bo‘la olmaydi. Lug‘at so‘zligi tarkibiga kira olishi uchun yana bir necha mezonlar, jumladan, ushbu birlik adabiy tilga siljigan, turdosh lug‘atlarga shevaga xos so‘z sifatida qayd qilingan, faqat muayyan hudud emas, nisbatan boshqa hudud aholisi nutqida ham uchraydigan bosqichga yetgan bo‘lishi kerak. yuqorida keltirilgan “*ang‘imoq*”, *arbamoq*, *chalqayramon*, *oyoq ilmoq*, so‘zlari asar bilan birga xalq tiliga kirib boradigan va sekinlik bilan adabiy tilga singadi.

Shu bilan birga lug‘at so‘zligini tanlashda og‘zaki so‘zlashuv nutqi materiallari hamda mediaplatformalardagi matnlar asosida o‘zbek segmentining raqamli avlodi



bo‘lgan yoshlar auditoriyasi – o‘quvchi yoshlar nutqida ishlatiladigan original so‘z va iboralar, slenglar, jargon va argolar, shuningdek boshqa birliklar ham tanlanishi mumkin. Masalan, yoshlar nutqida ishlatiladigan soxta, agressiv reklama, shov-shuv ma’nolaridagi hayp, piar, pokazuxa, ajiotaj, shumiha; kazzob, yolg‘onchi ma’nosidagi loxotron, yaxmalak, moliyaviy piramida, mashennik, uchiga chiqqan kabi sleng va jargonlar ham lug‘at turidan kelib chiqib qatorlardan muayyan muddatda joy olishi mumkin.

Maqsud Shayxzodaning “Chorak asr devoni” to‘plamida “Qardoshlik ruboiylari” deb nomlangan fasl bor. Shu faslga kirgan ruboiylaridan birida bu ikki xalq birday ishlatadigan doyi so‘zi qo‘llangan. Doyi – ozarbayjoncha va Xorazm shevasida tog‘a demakdir:

Bokuda bir cholga dedimki: - doyi,

Ko‘ngling ko‘p donolik, hikmatlar joyi,

“Qardosh deganingning nedur ma’nosi

Dedi – Shayx Nizomiy, hamda Navoiy”.

Ko‘rkam adabiyotning bosh vazifalaridan biri ezgu so‘z orqali millatlarni, xalqlarni, davlatlarni tinchlik, mehrparvarlik, oqibatdoshlik yo‘lida birlashtirishdir.

Xo‘p tingladik oq ko‘ngilli qora Robsonning

Dushmanlarga larza solgan dovul – na’rasin,

Va angladik tarjimasiz mard Aragonning

Baytlarida ma’nolarning asl-sarasin...

Sulh istadik koinotning chiroyi uchun,

Sulh istadik saodatning saroyi uchun,

Xalqlararo salom-alik odat bo‘lsin deb,

Tuproqlarning tomiriga quvvat to‘lsin deb.

Tinchlik, dedik!

Tinchlik, deymiz!

Va degusimiz!

Tinchlik deysan!

Tinchlik deyman!

Tinchlik deymiz biz!

L.N.Tolstoyning shunday hikmatli gapi bor: “So‘z – buyuk narsa. Shuning uchun ham buyukki, so‘z bilan odamlarni birlashtirish, so‘z orqali ularni bir-birlari bilan yuzko‘rmas qilib yuborish mumkin, so‘z bilan mehr qozonish, so‘z bilan nafrat va adovatga yo‘liqish mumkin. Odamlarni bir-biridan ajratadigan so‘zni aytishdan saqlan”.

Umuman olganda, sinonim o‘quv lug‘atlarda dialektal sinonimlarni kiritish masalasi, jiddiy yondoshuvni talab qiladi. Agar adabiy tildagi ma’nodagi so‘zning dialektal sinonimi bo‘lsa va u maktab darsliklarida (asosan, adabiyot darsligi) berilgan asarlar tarkibida uchrash bilan birga, turdosh lug‘atlarda, shuningdek, boshqa badiiy, publitsistik manbalar ham uchrash darajasida adabiy tilga yaqinlashgan bo‘lgan bo‘lsa, uni lug‘at so‘zligi tarkibiga kiritish mumkin.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Boboyev T. “Adabiyotshunoslik asoslari”. Toshkent. 2002. 558 b.
2. Maqsud Shayxzoda. Tanlangan asarlar.6-jild. Toshkent. 1974. 234 b.
3. Maqsud Shayxzoda. Tanlangan asarlar. 6-jild. Toshkent. 1974. 234 b.
4. “Tafakkur gulshani”. Toshkent. 1989. 459 b.